

Ushbu shartnoma uy-joy/kvartira sotib olish uchun ipoteka krediti ajratilganda qo'llaniladi.

Ipoteka krediti uy-joy/kvartirani ta'mirlash uchun ajratilganda "sotib olishga" doir jumalar "ta'mirlash" bilan bog'liq jumalarga almashtirilishi va ta'mirlash xususiyatlari (monitoring o'tkazish, hujjatlarni rasmiylashtirish bilan bog'liq masalalar) ko'zda tutilishi kerak.

**Kreditning to'liq
qiymati:** _____ (_____) **foiz**

**Ipoteka krediti ajratish to'g'risidagi
Namunaviy shartnoma _____-son**

20__ yil " __ " _____

"Biznesni rivojlantirish banki" Aksiyadorlik tijorat banki nomidan 20__ y. «__» _____dagi _____-sonli bosh ishonchnoma va _____ BXO (BXM, BXKM, Ipoteka krediti ajratish markazi) Nizomi asosida xarakat qiluvchi _____ boshqaruvchisi _____ (keyingi o'rinlarda – «**Kreditor**») bir tomondan, pasport seriyasi (ID-kartasi/yangi milliy haydovchilik guvohnomasi) № _____ tomonidan _____ y. «__» _____da berilgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi _____ (keyingi o'rinlarda – «**Qarz oluvchi**») ikkinchi tomondan va pasport seriyasi (ID-kartasi/yangi milliy haydovchilik guvohnomasi) № _____ tomonidan _____ y. «__» _____da berilgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi _____ (keyingi o'rinlarda – «Birgalikda qarz oluvchi») uchinchi tomondan, birgalikda «**Tomonlar**» deb nomlanuvchilar mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

1. Shartnomaning predmeti

1.1. Kreditor Qarz oluvchiga (Birgalikda qarz oluvchiga) ushbu shartnomada nazarda tutilgan shartlarda "O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi" aksiyadorlik jamiyati (keyingi o'rinlarda – ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi) mablag'lari hisobidan O'zbekiston Respublikasi, _____ (viloyati, Qoraqalpog'iston Respublikasi) _____ tumani (shahri) _____ ko'chasi, _____-uy, _____-xonadonda joylashgan umumiy maydoni _____ kv.m. bo'lgan, _____-xonali uy-joy/kvartira (keyingi o'rinlarda - "uy-joy") sotib olish uchun _____ (_____) so'm miqdorida ipoteka krediti beradi, Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) esa kreditlashning umumiy tamoyillariga (maqsadlilik, ta'minlanganlik, muddatlilik, qaytariluvchanlik va to'lovlilik) rioya etgan holda ipoteka kreditidan foydalanadi.

2. Asosiy tushunchalar

2.1. Ushbu shartnoma matnining keyingi o'rinlarida uchraydigan barcha atamalar (agar kontekstdan boshqacha ma'no anglanmasa) quyidagi bo'limda bayon qilingan tushunchalarni anglatadi:

ipoteka krediti – uy-joy sotib olishga, sotib olinadigan uy-joy garovi ostida beriladigan uzoq muddatli kredit;

Korrupsion holatlar bo'yicha ma'lumot berish uchun QR kodni skanerlang

Imzo _____

Imzo _____



Qarz oluvchi – uy-joy sotib olish uchun ipoteka krediti olgan va kredit shartnomasida belgilangan shartlarda qaytarish majburiyatini olgan jismoniy shaxs;

Birgalikda qarz oluvchi - Qarz oluvchining ipoteka krediti va kredit bo'yicha foizlarning har oydagi to'lovlarida qatnashadigan, shuningdek ipoteka krediti bo'yicha solidar javob beradigan jismoniy shaxslar;

kredit bo'yicha ta'minlash – sotib olinadigan uy-joyi belgilangan tartibda garovga qo'yish;

boshlang'ich badal – Qarz oluvchining sotib olinadigan uy-joy qiymatini kamida 25 foizi miqdoridagi Qarz oluvchi (birgalikda qarz oluvchilar)ning nomiga ochilgan depozit hisob raqamiga kiritilgan pul mablag'lari;

birlamchi uy-joy bozori – yangi uy-joy fondidan uy-joy taklif etuvchi bozor;

ikkilamchi uy-joy bozori – eski uy-joy fondidan uy-joy taklif etuvchi bozor;

maqsadli mablag'lar – ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi tomonidan bankka o'zaro tuziladigan bosh bitimga asosan yangi muvofiq (priemlemy) ipoteka kreditlari ajratish uchun yoki mavjud muvofiq ipoteka kreditlarini qayta moliyalashtirish uchun beriladigan moliyaviy mablag';

kredit bo'yicha foizlar - kreditdan foydalanganlik uchun to'lov;

kreditni berish sanasi - mablag'larni ssuda hisobvarag'idan uy-joy sotuvchining depozit hisobvarag'iga o'tkazish sanasi;

kreditni to'lash sanasi - Qarz oluvchining Kreditor oldidagi majburiyatlarini to'liq bajarishiga olib keladigan ipoteka krediti bo'yicha hisoblangan foizlarning jami qoldig'ini va qarz qoldig'ini qoplaydigan oxirgi to'lov tushgan sana;

to'lov majburiyatlari - Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi)ning ipoteka krediti, uning bo'yicha foizlarni ushbu shartnomada ko'rsatilgan summada va muddatlarda hamda boshqa to'lovlar (ipotekani rasmiylashtirish, sug'urtalash va shu kabilar uchun xarajatlar) bo'yicha majburiyatlari;

kredit bo'yicha to'lov muddati o'tgan qarz - Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) tomonidan belgilangan muddatlarda to'lanmagan, ipoteka krediti yoxud uning bir qismi, kreditdan foydalanganlik bo'yicha hisoblangan foizlar, penyalalar va boshqa to'lov majburiyatlari bo'yicha qarzlarning summasi;

kredit bo'yicha qarz - kreditning hammasi yoxud Qarz oluvchi tomonidan foydalanilgan ipoteka kreditining qoldig'i, tegishli hisobvaraqlarida Qarz oluvchiga ochilgan hisobvaraqlaridagi ipoteka kreditidan foydalanganlik uchun hisoblab yozilgan foizlar;

ipotekani talab qilish huquqi – uy-joy sotib olish maqsadida bankdan ajratilgan kredit to'lovi bilan bog'liq majburiyatlar bo'yicha talab qilish huquqini bank va ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi o'rtasida tuzilgan bitim, bank va Qarz oluvchi o'rtasida tuzilgan kredit hamda ipoteka shartnomasida ko'zda tutilgan tartibda ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasiga o'tkazilishiga doir qoida. Ipoteka kreditini talab qilish huquqining berilishida Qarz oluvchining roziligi talab qilinmaydi.

3. Qarz oluvchining tasdiqlari

3.1. Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) ushbu bilan quyidagilarni tasdiqlaydi:

Bankka taqdim etilgan/etiladigan kreditni rasmiylashtirish va olish uchun hujjatlar va ma'lumotlar bunday hujjatlar va ma'lumotlar taqdim etilgan sanada haqiqiy va ishonchli hisoblanadi;

Birgalikda qarz oluvchi majburiyatlar bo'yicha ushbu shartnoma doirasida birgalikda javob beradi va bu majburiyatlar haqiqiy hisoblanadi;

Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi)ning ushbu shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarishdan bosh tortishi Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi)ning ushbu

Korrupsion holatlar bo'yicha ma'lumot berish uchun QR kodni skanerlang

Imzo _____

Imzo _____



shartnomaga va O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'lishiga olib keladi;

agar Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) ushbu shartnomada belgilangan to'lovni amalga oshirishga yoki belgilangan talablardan istalganini bajarishga qodir bo'lmasa Kreditor kreditni muddatidan oldin qaytarishni va hisoblangan foizlarni, shuningdek boshqa to'lovlarni to'lashni talab qilishga haqlidir. Shu bilan birga, Kreditor qonun hujjatlarida belgilangan tartibda kreditni ta'minlash bo'yicha va Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi)ning boshqa mol-mulkiga undiruvni qaratishga haqlidir.

Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi)ning barcha bank karta hisobvaraqlari Bankning avtoto'lov xizmatiga ulanishiga rozi ekanligini va ushbu xizmat orqali Bank tomonidan kreditning to'lovlar jadvali bo'yicha muddati kelgan qismi va hisoblangan foizlarni qoplash uchun yetarli bo'lgan mablag'lar ularning bank karta hisobvaraqlaridan avtomatik tarzda hisobdan chiqarilishi tushuntirilganligini;

Qarz oluvchi unga Bank tomonidan ajratiladigan kredit to'g'risidagi ma'lumotlarni Kredit axborotlari milliy instituti, "Kredit-axborot tahliliy markazi" kredit byurosiga hamda kredit ta'minotiga doir ma'lumotlar "Garov reestri" DUKga taqdim etilishiga va Bankdan ajratiladigan ipoteka kreditining ta'minoti sifatida uy-joy garovda turishida o'z roziligini beradi.

Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) Kreditorni kredit bo'yicha istalgan ta'minlashni realizatsiya qilishga va undan foydalanishga va/yoki Kreditorning o'z huquqlarini amalga oshirishi uchun barcha zarur choralarni ko'rishga chaqirib olishsiz va so'zsiz tartibda vakil qiladi.

4. Ipoteka krediti ajratish va qaytarish tartibi

4.1. Ushbu shartnomaga ko'ra _____ (_____) so'm miqdoridagi kredit mablag'lari _____ yil (_____ oy)gacha bo'lgan muddatga ya'ni, ____ yildan ____ yilgacha, yillik _____ foiz ustama bilan ajratiladi.

Ipoteka kreditining to'liq qiymati quyidagi to'lovlarni o'z ichiga oladi:

a) asosiy qarz _____ (_____) so'm;

b) foiz to'lovi _____ (_____) so'm;

v) uy-joy qiymatini belgilash bo'yicha baholovchi tashkilot xizmati uchun to'lov _____ (_____) so'm;

g) uy-joyning oldi-sotdi shartnomasini imzolashda notarial xarajatlar uchun to'lov _____ (_____) so'm;

d) ipoteka krediti hisobiga sotib olinadigan uy-joyni davlat ro'yxatidan o'tkazish (kadastr hujjatlari) uchun to'lov _____ (_____) so'm;

ye) garov mulkini yo'qolish va shikastlanish tavakkalchiliklaridan sug'urta qilish _____ (_____) so'm;

j) uy-joy ipotekasi (garovi) to'g'risidagi shartnomani notarial tartibda tasdiqlash va davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun to'lov _____ (_____) so'm;

z) boshqa xarajatlar _____ (_____) so'm.

4.2. Kredit to'lovlari annuitet (har oylik barcha to'lovlar kredit to'lashning butun davrida bir xil) usulida to'lash orqali kaytariladi.

4.3. Kredit Qarz oluvchi tomonidan taqdim qilingan uy-joy sotib olishga shartnoma va uning yozma topshirig'i asosida oldi-sotdi shartnomasida ko'rsatilgan sotuvchining hisobvarag'iga pul ko'chirish yo'li bilan ajratiladi.

4.4. Kredit bo'yicha foizlar haqiqatda berilgan kredit asosiy summasining qoldig'iga nisbatan kunlik hisoblanadi hamda kredit va unga hisoblangan foizlarni qaytarish mazkur shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan, tomonlar o'rtasida imzolanadigan ilovadagi qaytarish jadvaliga (keyingi o'rinlarda – "to'lovlar jadvali") muvofiq amalga oshiriladi.

Korrupsion holatlar bo'yicha ma'lumot berish uchun QR kodni skanerlang

Imzo _____

Imzo _____



4.5. Qarz oluvchi olingan kreditni muddatidan oldin qaytargan taqdirda, kreditdan haqiqatda foydalangan davri uchun hisoblangan foizlarni to'laydi.

4.6. Kredit bo'yicha muddati o'tgan qarzdorliklar Qarz oluvchining topshirig'isiz unga tegishli bank hisobvaraqlari, jumladan bank omonati, plastik kartalar va boshqa hisobvaraqlarda turgan mablag'larni o'chirish yo'li bilan so'ndiriladi.

4.7. Qarz oluvchidan kreditning joriy to'lovi uchun to'lovlar jadvalida belgilangan summaga nisbatan (asosiy qarz va foizlar yig'indisidan) ko'proq mablag' kelib tushgan hollarda, Qarz oluvchi agarda, qarzdorlikni to'lash uchun boshqacha topshiriq bermagan bo'lsa, u holda Kreditor kelib tushgan mablag'ning ortiqcha qismini to'lovlar jadvalida kelishilgan navbatdagi asosiy qarzni (oylar ketma-ketligi bo'yicha qarzlarni) so'ndirishga yo'naltiradi.

4.8. Kredit bo'yicha qarzni to'lash uchun Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) tomonidan yo'naltiriladigan to'lovlar quyidagicha navbat bilan to'lanadi:

- muddati o'tgan foizlar;
- muddati o'tgan asosiy qarzar;
- muddati o'tgan asosiy qarzga hisoblangan foizlar;
- muddatli foizlar;
- to'lov muddati uzaytirilgan foizlarning grafik bo'yicha muddati kelgan qismi;
- muddati o'tgan foizlarga hisoblangan penyalari;
- kredit bo'yicha muddatli qarzar;
- qarz oluvchining boshqa to'lov majburiyatlarini to'lash.

4.9. Agar ushbu shartnoma bo'yicha istalgan summalarni to'lash sanasi ish kuni hisoblanmaydigan kunga to'g'ri kelsa, u holda ushbu summalarni to'lash keyingi ish kunidan kechikmay amalga oshirilishi kerak.

4.10. Mazkur shartnoma imzolanib, Qarz oluvchi tomonidan Kreditorga uy-joy sotib olish uchun oldi-sotdi shartnomasi, ipoteka predmetini yo'qolish va shikastlanish xavfidan sug'urta shartnomasi va sug'urta polisi hamda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan ipoteka (shartnoma yoki qonun asosida) taqdim qilinganidan so'ng, shuningdek bankda maqsadli mablag'lar mavjud bo'lgan holda, 1 (bir) ish kuni ichida uning pul o'tkazishga yozma topshirig'iga asosan kredit ajratiladi. Uy-joy birlamchi bozordan sotib olinayotgan hollarda ipoteka shartnomasi Kreditor tomonidan "Garov reestri" DUK rasmiy sayti orqali uy-joyga taqiq qo'yilishi va ipoteka shartnomasini belgilangan tartibda Kadastr agentligi tizimi korxonalarida davlat ro'yxatidan o'tkazilishini talab qilishi mumkin.

4.11. Mazkur shartnoma imzolanganidan keyin Qarz oluvchi tomonidan bir kalendar oyi mobaynida ushbu shartnomaning 4.10.-bandida ko'rsatilgan shartlar bajarilmagan yoki pul o'tkazishga yozma topshiriq taqdim etilmagan taqdirda, Kreditor majburiyatni bajarishdan bir tomonlama bosh tortishi va kreditni o'tkazish to'g'risidagi yozma topshiriqni ijroga qabul qilmasligi, qabul qilingan to'lov hujjatlarini (arizalarni) ijrosiz qaytarishi mumkin.

5. Ipoteka krediti bo'yicha ta'minlash

5.1. Ushbu shartnoma bo'yicha berilgan kredit belgilangan tartibda sotib olingan uy-joy ipotekasi bilan ta'minlanadi.

5.2. Majburiyatlarning bajarilishini ta'minlashning bir nechta usullarining mavjud bo'lishi bir-biriga zid hisoblanmaydi, majburiyatlarni bajarishning har qaysi usuli mustaqil hisoblanadi va bir-biriga bog'liq bo'lmaydi.

5.3. Undiruvni majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash usullariga qaratish zarur bo'lgan taqdirda, tanlash huquqi Kreditor qoladi, u o'z ixtiyoriga ko'ra majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash usullaridan istalganiga yoki barcha usullariga talab qo'yishi mumkin.

5.4. Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) kreditni ta'minlashni kamida kredit bo'yicha to'lovlarni qoplash imkonini beradigan miqdorda tutish, Kreditor foydasiga kredit shartnomasi



amal qiladigan muddatga, ipoteka predmetini uning to'liq qiymatida yo'qotish va shikastlanish xavfi yuzasidan sug'urta qilish majburiyatini oladi.

5.5. Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) kreditning qaytarilishini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan hujjatlarni zarur darajada rasmiylashtirish bo'yicha har qanday xarajatlarni o'z zimmasiga oladi.

5.6. Kreditning ta'minlanishini belgilaydigan hujjatlar ushbu shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

5.7. Kreditor ipoteka kreditining ta'minoti bo'yicha talab qilish huquqini ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi foydasiga voz kechishi Kreditor va Qarz oluvchi o'rtasida tuziladigan ipoteka shartnomasida aks ettirilishi shart.

6. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

6.1. Qarz oluvchi quyidagi huquqlarga ega:

a) ipoteka shartnomasini imzo qo'ymasdan oldin tanishib chiqish uchun o'zi bilan olib ketish;

b) shartnoma tuzilgandan keyin va pul mablag'lari olingunga qadar bo'lgan davrda kredit olishdan bepul asosda voz kechish (bunda, Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) tomonidan qilingan har qanday xarajatlar Kreditor tomonidan qaytarilmaydi (qoplanmaydi));

v) istalgan vaqtda shartnomaviy neustoykalarni to'lamagan holda ipoteka kreditini muddatidan oldin so'ndirish;

g) ipoteka kreditini qaytarish uchun to'lovlarni amalga oshirish shakli, sug'urta kompaniyasi va (yoki) baholovchini mustaqil ravishda tanlash;

d) Kreditor tomonidan shartnoma shartlari bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi natijasida yetkazilgan zararlarni qoplanishini talab qilish.

6.2. Qarz oluvchi quyidagilarga majbur:

a) ipoteka kreditidan foydalanishda kreditlashning maqsadlilik, qaytarishlilik, to'lovlilik, ta'minotlilik va muddatlilik tamoyillariga rioya qilish;

b) kreditdan faqat mazkur shartnomada ko'rsatilgan maqsadlarda foydalanib, kredit va unga hisoblangan foizlarni to'lovlar jadvaliga muvofiq to'lab borish;

v) yashash joyi, ish joyi, ismi va familiyasi o'zgarganda yoki shartnoma shartlarini bajarishga salbiy ta'sir etishi mumkin bo'lgan boshqa holatlar yuzaga kelganda, bu haqda Kreditorni 5 (besh) kun mobaynida xabardor qilish;

g) kredit ta'minoti sifatida garovga qo'yilgan mulkka zarar yetib, yaroqsiz holga kelgan yoki ta'minot miqdori kamaygan taqdirda, bu haqda Kreditorni 10 kun mobaynida xabardor qilgan holda, qoldiq qarz summasining 125 foizi miqdoridagi boshqa (qo'shimcha) ta'minot taqdim qilish;

d) mablag'larni avtomatik tarzda o'chirish uchun taqdim qilingan hisobvaraqlar, shu jumladan bank plastik kartalari raqami, shuningdek o'zaro xabar almashish uchun taqdim qilingan aloqa vositasi (telefon raqam, elektron manzil yoki boshqalar) o'zgargan taqdirda 5 kunlik muddatda yangi ma'lumotlarni taqdim qilish.

ye) majburiyatlarni bajarmayotganligi to'g'risida Kreditor tomonidan xabar (yozma bildirishnoma, "SMS" va boshqa elektron shaklda xabarlar) berilganda, zudlik bilan majburiyatlarni bajarish choralarini ko'rish;

yo) shartnoma va qonunchilikda nazarda tutilgan shartlarda neustoyka va zararlarni to'lash.

6.3. Kreditor quyidagi huquqlarga ega:

a) Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) shartnoma shartlarini bajarmasa ipoteka kreditini berishdan butunlay yoki qisman bosh tortish;

b) quyidagi hollarda Qarz oluvchidan ipoteka krediti va foizlarni undiruvni sud tartibida ta'minotga qaratish yo'li bilan muddatidan oldin undirish:

- Qarz oluvchiga ajratilgan ipoteka krediti maqsadsiz sarflansa;

Korrupsion holatlar bo'yicha ma'lumot berish uchun QR kodni skanerlang

Imzo _____

Imzo _____



- ipoteka krediti ta'minoti talabga javob bermaganda va Qarz oluvchi tomonidan ushbu shartnomada ko'rsatilgan muddatda qo'shimcha ta'minot taqdim qilinmaganda;

- Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) Kreditor tomonidan taqdim qilingan talabnomada ko'rsatilgan talablarni belgilangan muddat, o'ttiz kun ichida, lozim darajada bajarmaganda.

v) Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) ipoteka kreditini qaytarish muddatlarini buzganda, shartnomada belgilangan foiz stavkasini to'lovlar jadvali bo'yicha muddati o'tgan qismiga nisbatan 1,5 martaga oshirilgan holda hisoblash;

g) Qarz oluvchi ipoteka krediti bo'yicha hisoblangan foizni to'lovlar jadvali bo'yicha to'lash muddatlarini buzganda, har bir kechiktirilgan kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,3 foizi miqdorida penya hisoblash;

d) ipoteka kreditidan foydalanganlik uchun foizlarni Qarz oluvchi Kreditorning pul mablag'laridan amalda foydalangan butun davri uchun, hatto aktiv (kredit/qarz) o'stirmaslik maqomiga o'tkazilgan taqdirda ham, pul majburiyatlarini kechiktirish davrini qo'shgan holda hisoblash;

ye) ipoteka krediti shartnomasi muddatidan oldin bekor qilinishidan qat'iy nazar shartnoma bekor qilish paytidan boshlab kreditni qaytarish kuniga qadar pul mablag'laridan foydalanilgan butun davr uchun O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 327-moddasida nazarda tutilgan foizlarni olish;

yo) ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi tomonidan Qarz oluvchiga ajratilgan ipoteka krediti bo'yicha, Qarz oluvchining aybi uchun Kreditorga qo'llanilgan har qanday neustoykalarni Qarz oluvchidan mos miqdorlarda undirib olish;

j) Qarz oluvchining hisobraqamiga kelib tushadigan mablag'larni dastlab ipoteka krediti bo'yicha hisoblangan neustoyka va kreditga hisoblangan foiz to'lovlarini so'ndirishga, ortgan qismini asosiy qarzni so'ndirishga yo'naltirish;

z) Qarz oluvchining (Birgalikda qarz oluvchining) daromadlariga shubha tug'ilgan taqdirda, mavjud rasmiy manbalardan mustaqil ravishda ma'lumotnoma olish;

i) Kreditdan foydalanishning butun davri mobaynida Kreditor (zarur hollarda, ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi vakillari ishtirokida) doimiy monitoringni amalga oshirish. Bunda bank monitoring davomida ipoteka krediti va uning bo'yicha foizlarning to'lanishi, garovga qo'yilgan mol-mulkdan foydalanish va ularni saqlash qoidalariga amal qilinishi, ipoteka predmetining noqonuniy begonalashtirilishiga yo'l qo'yilmasligi yuzasidan nazoratni amalga oshiradi;

y) ipoteka krediti bo'yicha qarzdorliklarni so'ndirish uchun Qarz oluvchiga tegishli bank hisobvarag'i va (yoki) bank omonatidan (shu jumladan, bank kartalari bo'yicha) mablag'larni hisobvaraqq (omonat) egasining topshirig'isiz hisobdan chiqarish;

k) ushbu shartnoma bo'yicha muddati o'tkazib yuborilgan qarzдорlik yuzaga kelganda, Kreditor Qarz oluvchiga zimmasidagi qarz yuki yanada oshib ketishining oldini olish maqsadida qarzдорlik yuzaga kelgan sanadan boshlab 7 (yetti) kalendar kuni davomida Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi)ning mobil telefoniga uning kredit bo'yicha qarzдорligi to'g'risidagi xabarlarini "SMS" va boshqa elektron shaklda kunning soat 8:00dan 20:00gacha bo'lgan vaqt oralig'ida muddati o'tkazib yuborilgan qarzдорlik to'g'risida ma'lumot, to'lovlar jadvalini ilova qilgan holda xabarnoma yuborish;

l) agar shartnoma bo'yicha majburiyat o'z vaqtida bajarilmaganda, uning bajarilishi yuzasidan amaliy yordam so'rab, Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchining ish joyi, yashash joyidagi MFY va yaqin qarindoshlariga Bank tomonidan yozma murojaat qilinishiga o'z roziligini beradi hamda bu holat bank sirini oshkor qilish deb hisoblanmaydi;

m) Qarz oluvchining kredit tarixini shakllantirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarini Banklararo kredit byurosiga va garov to'g'risidagi ma'lumotlarni "Garov reestri"ga taqdim etish;

n) Qarz oluvchidan garovga qo'yilgan mol-mulkni saqlash bo'yicha zarur choralarni ko'rishni talab qilish;

Korrupsion holatlar bo'yicha ma'lumot berish uchun QR kodni skanerlang

Imzo _____

Imzo _____



o) ushbu shartnomani unda belgilangan tartibda bekor qilish (qonun hujjatlarida bunday shartnomani bekor qilishning boshqacha tartibi belgilangan taqdirda ushbu shartnoma qonun hujjatlarida belgilangan tartibda bekor qilinadi);

p) ipoteka kreditini talab qilish huquqini Qarz oluvchining qo'shimcha roziligini olmasdan ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasiga berish;

r) Kreditor Qarz oluvchi haqidagi har qanday ma'lumotlarni ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasiga taqdim qilishga haqli. Bunday ma'lumotlarning taqdim etilishi bank siriga doir ma'lumotlarning oshkor qilinishi hisoblanmaydi.

s) Mazkur shartnoma boshqa shaxsga qayta rasmiylashtirilganda (qarzdor almashganda), Bank amaldagi bank xizmatlari uchun o'rnatilgan tarifga muvofiq xizmat haqi undirish va kredit uchun o'rnatilgan foiz stavkasini oshirish;

t) Mazkur shartnomaga Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi)ning talabiga (istagiga) ko'ra o'zgartirish va/yoki qo'shimcha kiritilganda, Bank amaldagi bank xizmatlari uchun o'rnatilgan tarifga muvofiq xizmat haqi undirish;

u) Qarz oluvchi mazkur shartnoma tuzilgan kundan e'tiboran bir oy muddat ichida kreditdan foydalanmagan taqdirda, uni yozma ravishda xabardor etish orqali ushbu shartnomani bir tomonlama bekor qilish;

v) Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) ipoteka krediti bo'yicha muddati o'tgan qarzdorliklar (kredit va/yoki foiz) 90 kundan ortiq muddati o'tganda hamda ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasining belgilangan mezonlari bo'yicha "nomuvofiq ipoteka krediti" deb topilganda, mazkur shartnomaning 4.1.-bandida belgilangan kredit foizi stavkasini 1,5 martaga oshirilgan holda hisoblash.

Kreditor o'z ixtiyoriga ko'ra Qarz oluvchiga nisbatan ushbu shartnoma bo'yicha o'zi ega bo'lgan huquqlardan istalganini qo'llashi yoxud qo'llamasligi mumkin. Kreditor tomonidan ushbu huquqlarning qo'llanmasligi yoxud qisman qo'llanishi ushbu huquqlardan voz kechishni yoki qo'llash lozimligini anglatmaydi va ular kelgusida istalgan vaqtda qo'llanishi yoki qo'llanmasligi mumkin.

6.4. Kreditor quyidagilarga majbur:

a) olingan ipoteka kreditini hisoblash uchun Qarz oluvchiga ssuda hisobvarag'ini ochish;

b) Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) tomonidan ipoteka krediti berish uchun barcha zarur shartlar bajarilgan taqdirda ushbu shartnoma shartlariga rioya qilgan holda kreditni berish;

v) Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) ipoteka kreditining asosiy qarzini muddatidan oldin qaytarganda, asosiy qarzning qaytarilgan qismiga foizlar hisoblashni to'xtatish;

g) Qarz oluvchining so'roviga ko'ra ajratilgan ipoteka kreditiga bog'liq bo'lgan ma'lumotlar, jumladan hisobvarag'idagi pul mablag'lari harakati va bank xizmatlari ta'riflariga doir ma'lumotlar berish;

d) Qarz oluvchiga (Birgalikda qarz oluvchiga) tegishli tijorat siri va bank siri hisoblanuvchi ma'lumotlarning oshkor qilinmasligini ta'minlash;

ye) Qarz oluvchining og'zaki yoki yozma so'rovi olinganda unga quyidagi axborotlar yozma shaklda bir marta bepul taqdim etiladi:

kredit bo'yicha to'langan pul mablag'lari summasi;

asosiy summa bo'yicha qarz qoldig'i;

navbatdagi to'lovlarning miqdori, tarkibi va muddatlari (to'lovlar jadvali);

kreditni muddatidan oldin qisman yoki to'liq so'ndirish istagi bildirilgan taqdirda to'lash lozim bo'lgan summalar miqdori;

muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlik miqdori va tarkibi;

kelib tushayotgan pul mablag'lari kredit bo'yicha qarzni so'ndirishga yo'naltirilishi haqida axborotlar;

ipoteka krediti shartnomasi;

Qarz oluvchi tomonidan berilgan ariza;

Korrupsion holatlar bo'yicha ma'lumot berish uchun QR kodni skanerlang

Imzo _____

Imzo _____



Qarz oluvchiga ipoteka krediti berilganligini tasdiqlovchi hujjat;
ipoteka krediti shartnomasi bo'yicha Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchiga) tomonidan majburiyatlari to'liq bajarilganligini tasdiqlovchi hujjat (ma'lumotnoma).

yo) to'lovlar jadvali rasmiylashtirilgandan so'ng kreditlashni boshlash muddatlari, foiz stavkasi o'zgarishi, shartnomaning boshqa shartlari qayta ko'rib chiqilishi munosabati to'lovlarni amalga oshirish sanalari va muddatlari yoki oraliq to'lovlarining miqdorlari o'zgarganda, Tomonlar o'rtasida to'lovlar jadvali yangidan rasmiylashtirilib, Qarz oluvchiga (Birgalikda qarz oluvchiga) taqdim qilinadi. Bunda, to'lovlar jadvali yangidan rasmiylashtirilishi munosabati bilan undan oldin mavjud bo'lgan to'lovlar jadvali o'z kuchini yo'qotadi. Yangidan rasmiylashtiriladigan to'lovlar jadvali Qarz oluvchi uni imzolash uchun 3 bank ish kunida bankka kela olmagan holatda, Bank tomonidan Qarz oluvchining shaxsiy kabinetiga yoki elektron pochtasiga elektron shaklda yuborish orqali tuziladi.

j) Kreditor Qarz oluvchi tomonidan shartnomaga asosan ipoteka krediti bo'yicha qarzдорlik summasini to'lash majburiyati to'liq bajarilgan sanadan boshlab uch ish kunidan kechiktirmagan holda mazkur qarz bo'yicha:

garovda turgan mulkni taqiqdand chiqarish;

garov sifatida bo'lgan mol-mulkka nisbatan Kreditorning huquqlari to'g'risidagi yozuvni garov reestridan chiqarish choralari ko'rishi shart.

z) Kreditor tomonidan ipoteka krediti bo'yicha qarzдорliklarni so'ndirish uchun bank hisobvarag'i va (yoki) bank omonatidan (shu jumladan, bank kartalari bo'yicha) mablag'lar hisobvaraql (omnat) egasining topshirig'isiz hisobdan chiqarilganda, Kreditor ushbu mablag' hisobdan chiqarilgan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmagan holda hisobvaraql (omnat) egasiga uning hisobvarag'idan qancha miqdordagi mablag' qanday sabablarga asosan va kimning foydasiga chiqarilganligini ko'rsatgan holda "SMS" xabarnoma (ma'lumotnoma) yuborishi shart.

6.5. Tomonlar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ega bo'lib, majburiyatlarni bajaradilar.

7. Majburiyatlarni bajarmaslik holatlari

7.1. Ushbu bandda qayd etilgan hodisalardan istalgani majburiyatlarni bajarmaslik holati hisoblanadi:

Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) tomonidan kredit, foizlar va/yoki boshqa to'lovlarning ushbu shartnoma, unga ilova qilingan to'lovlar jadvali, shuningdek tuzilishi ushbu shartnomada belgilangan boshqa shartnomalar bo'yicha zarur sanada to'lashni amalga oshirmaganlik;

Kreditorni haqiqiy bo'lmagan hujjatlar taqdim etish yo'li bilan ataylab chalg'itish;

Kreditorga kredit, Bank xulosasi bo'yicha Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) tomonidan taqdim etilgan har qanday ta'minotning o'z qimmatini qisman yoki to'liq yo'qotganligi yoki haqiqiy bo'lmay qolganligi;

Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) to'lov qobiliyatining yomonlashishi yoki ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarning muntazam ravishda bajarilmasligiga olib keladigan aniq axborotning yashirilishi;

Kreditor tomonidan mazkur shartnomaning 4.10.-bandida ko'rsatilgan asoslar vujudga kelganidan so'ng belgilangan tartibda kredit mablag'lari ajratilmaganligi;

Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi)ning Kreditor oldidagi majburiyatlari bajarilishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa hodisalar;

ushbu shartnoma shartlarining buzilishi;

ushbu shartnoma bilan bog'liq bo'lgan boshqa shartnomalar (sug'urta va boshqalar) shartlarining buzilishi.

8. Undiruvni kredit ta'minotiga qaratish

Korrupsion holatlar bo'yicha ma'lumot berish uchun QR kodni skanerlang

Imzo _____

Imzo _____



8.1. Kreditor ushbu shartnoma shartlariga muvofiq garov bilan ta'minlangan majburiyatning bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarilmaganligi tufayli kelib chiqqan talablarni ushbu mulk hisobiga qondirish uchun undirishni majburiyatlarni ta'minlash sifatida garovga qo'yilgan mol-mulkka qaratishga haqlidir.

8.2. O'zbekiston Respublikasi "Ipoteka to'g'risida"gi Qonunining 23, 26 va 28-moddalarida nazarda tutilgan holatlarda Kreditor ipoteka bilan ta'minlangan majburiyatlarning muddatidan oldin bajarilishini talab qilishga, ushbu talab bajarilmagan taqdirda esa - undirishni garovga qo'yilgan mol-mulkka qaratishga haqlidir.

8.3. Tomonlar shunday bitimga kelishdilarki, Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) tomonidan ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlari bajarilmagan taqdirda Kreditor o'z talablarini, undirishni ipoteka predmetiga qaratish uchun asoslar paydo bo'lgandan keyin, Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) bilan Kreditor o'rtasida tuzilgan, notarial tasdiqlangan bitim asosida suddan tashqari tartibda qondiradi.

8.4. Undirishni majburiyatni ta'minlash uchun garovga qo'yilgan, ipoteka predmeti hisoblanadigan mol-mulkka qaratish Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) tomonidan to'lovlarni to'lash muddatlari muntazam ravishda, ya'ni o'n ikki oy mobaynida uch martadan ko'p buzilgan taqdirda belgilangan tartibda amalga oshirilishi mumkin.

8.5. Agar garovga qo'yilgan mol-mulkni sotishdan olingan summa Kreditor talablarini qoplash uchun yetarli bo'lmasa, u yetishmagan summani Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi)ning boshqa mol-mulkidan olish huquqiga ega.

8.6. Undiruv sud tartibida majburiyatlarni ta'minlash uchun garovga qo'yilgan ipoteka predmeti bo'lgan uy-joyga qaratilganda, boshlang'ich sotuv bahosi Kreditor bilan Qarz oluvchi tomonidan imzolangan ipoteka predmetini kelishuv dalolatnomasi asosida belgilanadi.

9. Tomonlarning javobgarligi

9.1. Kreditorning javobgarligi:

a) Kreditor kreditning o'z vaqtida berilishi va hisob-kitoblarning to'g'ri amalga oshirilishi yuzasidan javobgardir;

b) Kreditor tomonidan mazkur shartnomada kelishilgan muddatlarda kredit mablag'lari ajratilmaganda, kechiktirilgan har bir kun uchun (bajarilmagan majburiyatning) 0,1 foizi miqdorida penya to'laydi. Bunda, hisoblangan penyalarning umumiy miqdori ajratilmagan mablag'larning umumiy miqdorining 10 foizidan oshmasligi lozim;

9.2. Qarzdor (Birgalikda qarz oluvchi)ning javobgarligi:

a) Qarzdor (Birgalikda qarz oluvchi) kreditni qaytarish muddatlarini buzganda, mazkur kredit shartnomasida belgilangan foiz stavkasini to'lovlar jadvali bo'yicha muddati o'tgan qismiga nisbatan 1,5 martaga oshirilgan xolda to'lab boradi.

10. Qo'shimcha shartlar

10.1. Kredit muddati mobaynida uy-joyni sotish, o'zgaga berishga, ijaraga topshirishga, tekin foydalanish uchun berishga, ipoteka predmeti manzili bo'yicha yaqin qarindoshlarni va uchinchi shaxslarni ro'yxatdan o'tkazishga Bankning yozma rozilgisiz yo'l qo'yilmaydi.

10.2. Tomonlar ushbu shartnomaning unga binoan tartibga solinmaydigan qismi yuzasidan munosabatlarini O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq tartibga soladi.

10.3. Ushbu shartnoma muddatidan oldin bekor qilingan taqdirda Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) tomonidan to'langan kredit bo'yicha asosiy qarz summasi, uy-joy sotilgandan keyin Qarz oluvchiga qaytariladi. Bunda Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) tomonidan to'langan kredit bo'yicha hisoblangan foizlar unga qaytarilmaydi.

10.4. Kredit va unga hisoblangan foizlar o'z vaqtida to'lanmagan taqdirda, Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi)ning kredit tarixida majburiyatlar o'z vaqtida bajarilmaganligi to'g'risida ma'lumotlar shakllanadi va bu o'z navbatida kelgusida kredit tashkilotlaridan kredit olish imkoniyatini pasayishiga sabab bo'lishi mumkin.

Korrupsion holatlar bo'yicha ma'lumot berish uchun QR kodni skanerlang

Imzo _____

Imzo _____



11. Fors-major holatlari

11.1. Tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilmasligi shartnoma tuzilgandan keyin, Tomonlar oldindan ko'ra bilmagan, oqilona chora-tadbirlar bilan bartaraf eta olishmagan, favqulodda tuzdagi hodisalar natijasida paydo bo'lgan yengib bo'lmaydigan kuch holatlari oqibatida sodir bo'lgan taqdirda tomonlar majburiyatlarning qisman yoki to'liq bajarilmaganligi uchun javobgarlikdan ozod qilinadilar.

11.2. Yengib bo'lmaydigan kuch vaziyatlariga asoslanadigan Tomon boshqa Tomonni bunday vaziyatlar yuzaga kelganligi to'g'risida yozma shaklda darhol xabardor qilishi shart, shuningdek istalgan Tomonning talabiga ko'ra bunday vaziyatlarning yuzaga kelganligi holatini tasdiqlaydigan, tegishli organ tomonidan berilgan hujjat taqdim etilishi kerak.

11.3. Agar shartnomaning ushbu bo'limida ko'rsatilgan yengib bo'lmaydigan vaziyatlar uch oydan ortiq davom etsa, u holda har qaysi Tomon boshqa Tomonni xabardor qilgan holda ushbu shartnomani bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega. Bunda Tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilgan va bajarilmagan qismlari bo'yicha belgilangan tartibda uzil-kesil hisob-kitob qiladilar.

12. Korrupsiyaga qarshi shartlar

12.1. Taraflar ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda ularning har biri o'z faoliyatida korrupsion xarakatlarni to'liq ta'qiqlash va har qanday shaklda yordam (bevosita yoki bilvosita), shu jumladan pul mablag'lari, qimmatbaho buyumlar, boshqa mol-mulk yoki mulkiy xarakterdagi xizmatlar, boshqa mulkiy huquqlarni olish/berish, muayyan masalalarni tezroq hal qilishni ta'minlash, ma'muriy va boshqa tartib-qoidalarini soddalashtirish, raqobat va boshqa afzalliklarni ta'minlashni to'liq rad etadi. Tomonlar o'z faoliyatida amaldagi qonunchilik, shuningdek uning asosida ishlab chiqilgan korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan siyosat va tartib (agar mavjud bo'lsa) talablariga amal qiladilar.

12.2. Taraflar ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish chog'ida na o'zlari, na ijroiya organi, na ularning masabdor shaxslari yoki xodimlari biron-bir shaxslarga (jumladan, jismoniy shaxslar, tijorat tashkilotlari va davlat mansabdor shaxslari) korrupsion to'lovlarni taqdim etishni taklif qilmasligini, taqdim etmasligini, rozilik bermasligini, shuningdek har qanday shaxsdan (to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita) har qanday korrupsion to'lovlarni olishga yoki qabul qilishga rozi bo'lmashliklarini kafolatlaydi.

12.3. Mazkur bo'limning biron bir shartlari buzilgan taqdirda, tegishli taraf boshqa tarafni bunday buzilish sodir bo'lgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida yozma ravishda xabardor qilish majburiyatini oladi. Taraf yozma xabarnomada ushbu bo'limning qaysi bir qoidalarini buzilganligini tasdiqlovchi ishonchli faktlar va materiallarni taqdim qilishi shart. Yozma xabarnomalar "Biznesni rivojlantirish banki" ATB tomonidan tashkil etilgan jismoniy va yuridik shaxslar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplayens ishonch liniyasi" kanallari (tel:78-150-59-95, veb sayt www.brb.uz, Telegram messenjer @BRB_ANTIKOR_BOT (email: antikor@brb.uz) orqali amalga oshiriladi.

12.4. Ushbu bo'lim qoidalarini taraflardan biri tomonidan buzilganligi fakti tasdiqlanganda va/yoki boshqa tarafning qoidabuzarliklarni ko'rib chiqish haqida xabarnoma natijalari yuzasidan ma'lumot taqdim qilmagan taqdirda, boshqa taraf shartnomani bir taraflama qisman yoki to'liq bekor qilishga haqli.

12.5. Mazkur shartnomani korrupsiyaga qarshi shartlarga asoslanib bekor qilgan taraf, bunday bekor qilish natijasida yetkazilgan haqiqiy zararni talab qilishga haqli. Zararlarni qoplash taraflar tomonidan yozma ravishda tasdiqlanagan dalolatnomada belgilangan muddat va miqdorda amalga oshiriladi.

Korrupsion holatlar bo'yicha ma'lumot berish uchun QR kodni skanerlang

Imzo _____

Imzo _____



13. Yakunlovchi qoidalar

13.1. Ushbu shartnomada nazarda tutilmagan kelishmovchiliklar va/yoki nizoli vaziyatlar yuzaga kelgan hollarda Tomonlar, O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga amal qilgan holda, ularni muzokaralar yo'li bilan hal qiladilar. Tomonlarning kelishuviga erishilmagan taqdirda nizo O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq ko'rib chiqish uchun sud organlariga o'tkaziladi.

13.2. Ushbu shartnomaning 11.3.-bandini istisno qilgan holda, ushbu shartnomani o'zgartirish va bekor qilish Tomonlarning o'zaro kelishuvi bo'yicha yoki O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq sud tartibida amalga oshirilishi mumkin.

13.3. Ushbu shartnomaga barcha o'zgartirish va qo'shimchalar Tomonlar imzolagan qo'shimcha bitim tarzida yozma shaklda rasmiylashtiriladi.

13.4. Ushbu shartnoma Tomonlar uni imzolagan vaqtdan boshlab kuchga kiradi va ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar to'liq bajarilguncha amal qiladi.

13.5. Ushbu shartnoma har qaysi Tomon uchun bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan uch nusxada tuzildi.

Tomonlarning manzillari, rekvizitlari va imzolari:

Bank:	Qarz oluvchi:	Birgalikda qarz oluvchi:
(filialning to'liq nomi)	(F.I.O. to'liq)	(F.I.O. to'liq)
(indeks, manzil, tel.) elektron pochta	(indeks, manzil, tel.) elektron pochta	(indeks, manzil, tel.) elektron pochta
(bank rekvizitlari)	(tug'ilgan sanasi)	(tug'ilgan sanasi)
(STIR)	(tug'ilgan joyi)	(tug'ilgan joyi)
(filial boshqaruvchisining F.I.O.)	(STIR)	(STIR)
(imzo)	(imzo)	(imzo)

M.O'.

Hurmatli qarz oluvchi! Kredit va unga hisoblangan foizlar o'z vaqtida to'lanmagan taqdirda Sizning kredit tarixingizda majburiyatlar o'z vaqtida bajarilmaganligi to'g'risida

Korrupsion holatlar bo'yicha ma'lumot berish uchun QR kodni skanerlang

Imzo _____

Imzo _____



ma'lumotlar shakllanadi va bu esa o'z navbatida kelgusida kredit tashkilotlaridan kredit olish imkoniyatingizni pasayishiga sabab bo'lishi mumkin.

Shartnomani mazmuni va mohiyati bilan to'liq tanishib chiqdim hamda bir nusxasini oldim.

_____ “ ____ ” _____ 20__yil
(imzo) (kredit oluvchi FISH)

Shartnomani mazmuni va mohiyati bilan to'liq tanishib chiqdim hamda bir nusxasini oldim.

_____ “ ____ ” _____ 20__yil
(imzo) (BQOning FISH)

Korrupsion holatlar bo'yicha ma'lumot berish uchun QR kodni skanerlang

Imzo _____

Imzo _____

